NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING IJTIMOIY LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH USULLARI

Xasanov Jahongir Botir o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.15637144

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nodavlat notijorat tashkilotlarining (NNT) ijtimoiy loyihalarini moliyalashtirish usullari tahlil qilingan. Muallif an’anaviy va zamonaviy moliyalashtirish manbalarini o‘rganib, ularning samaradorligi va amaliyotda qo‘llanish imkoniyatlarini ko‘rib chiqadi. Xususan, grantlar, homiylik, kraudfanding va ijtimoiy tadbirkorlik kabi mexanizmlar muhokama qilingan. Shuningdek, moliyalashtirish jarayonidagi asosiy muammolar - qonunchilikdagi kamchiliklar, moliyaviy xabardorlikning yetishmasligi va tashkilotlar shaffofligi kabi omillar yoritilgan. Maqolada NNTlarning barqaror moliyaviy ta’minotini ta’minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar berilgan.*

Abstract. *This article analyzes the financing methods of social projects implemented by non-governmental non-profit organizations (NGOs). The author examines both traditional and modern sources of funding, assessing their effectiveness and applicability in practice. In particular, mechanisms such as grants, sponsorship, crowdfunding, and social entrepreneurship are discussed. Additionally, the article highlights key challenges in the financing process, including gaps in legislation, lack of financial literacy, and issues related to organizational transparency. The author also provides proposals and recommendations aimed at ensuring the sustainable financial support of NGOs.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы методы финансирования социальных проектов, реализуемых негосударственными некоммерческими организациями (ННО). Автор изучает как традиционные, так и современные источники финансирования, оценивая их эффективность и применимость на практике. В частности, рассматриваются такие механизмы, как гранты, спонсорство, краудфандинг и социальное предпринимательство. Также освещаются основные проблемы, возникающие в процессе финансирования, включая пробелы в законодательстве, недостаточную финансовую грамотность и вопросы прозрачности организаций. В статье представлены предложения и рекомендации, направленные на обеспечение устойчивого финансового обеспечения ННО.*

Tayanch so‘zlar: *nodavlat notijorat tashkiloti, ijtimoiy loyiha, moliyalashtirish, grant, kraudfanding, ijtimoiy tadbirkorlik.*

Key words: *non-governmental non-profit organization, social project, financing, grant, crowdfunding, social entrepreneurship.*

Ключевые слова: *негосударственная некоммерческая организация, социальный проект, финансирование, грант, краудфандинг, социальное предпринимательство.*

Bugungi kunda jahon miqyosida fuqarolik jamiyatini shakllantirish va mustahkamlash jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni ta’minlovchi vosita sifatida faoliyat yuritib, aholining turli ijtimoiy

qatlamlari manfaatlarini ifoda etuvchi, jamoatchilik tashabbuslarini amalga oshiruvchi ta'sirli tuzilmalar hisoblanadi.

NNTlar ta'lim, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, nogironlar huquqlarini himoya qilish, gender tengligi, yoshlar va xotin-qizlar faolligini oshirish kabi ko'plab ijtimoiy sohalarda faoliyat olib borishadi. Ularning amalga oshiradigan loyihalari jamiyatda muhim ijtimoiy o'zgarishlarga turtki beradi, aholining faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim o'rin tutadi.

Biroq, ushbu tashkilotlarning barqaror va samarali faoliyatini ta'minlashda moliyaviy ta'minlanish masalasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ko'pgina hollarda NNTlar ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun yetarli moliyaviy resurslarga ega emaslar. Bu esa ularning tashabbuslarini cheklaydi, faoliyat ko'lamini qisqartiradi va ta'sirchanligini kamaytiradi.

Moliyalashtirish manbalari va usullari NNTlar uchun nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki ularning mustaqilligi, shaffofligi va keng jamoatchilikka ta'sirini ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, keyingi yillarda moliyalashtirishning zamonaviy usullari, xususan, kraudfanding, ijtimoiy tadbirkorlik, davlat - NNT sherikligi kabi yondashuvlar NNTlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratib bermoqda.

Respublikamizda NNTning mol-mulkini shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

kirish va a'zolik badallari, agar ular ustavda nazarda tutilgan bo'lsa;

muassislardan, qatnashchilardan (a'zolardan) bir marotaba va muntazam ravishda keladigan tushumlar;

ixtiyoriy mulkiy badallar va ehsonlar;

tadbirkorlik faoliyatidan olingan, faqat ustav maqsadlari uchun ishlatiladigan daromadlar (foyda);

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlar[1].

Shu tariqa, O'zbekiston Respublikasida NNTning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun ularning mol-mulkini shakllantirish manbalari keng ko'lamda belgilangan. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, NNTlar o'z faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun a'zolik badallari, muassislardan tushumlar, ehsonlar, tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar va boshqa manbalardan foydalanishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, ularning ijtimoiy tashabbuslarni amalga oshirishda moliyaviy mustaqillikka erishishlari uchun huquqiy va iqtisodiy asos yaratadi. Endi esa, aynan ushbu manbalar doirasida ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishning turli usullarini tahlil qilish orqali NNTlarning amaliyotda qanday imkoniyatlardan foydalanayotganini ko'rib chiqamiz.

Birinchidan, NNTlarni moliyalashtirishning an'anaviy usullari.

1. Grantlar va subsidiyalar

Grantlar - nodavlat notijorat tashkilotlariga muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun davlat, xalqaro tashkilotlar yoki xususiy donorlar tomonidan berilgan bepul moliyaviy ko'mak shaklidagi mablag'lardir. Grantlar ko'pincha konkurs asosida beriladi va loyihaning maqsadli yo'naltirilganligi, aniq natijaga erishish strategiyasi, shaffofligi kabi mezonlarga qarab baholanadi. Grantlar asosan davlat yoki boshqa tashkilotlar tomonidan ularning ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarini amalga oshirish uchun ajratiladi.

[1] Ўзбекистон Республикасининг "Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида"ги Қонуни. – Тошкент, 1999. 29-моддаси

Shuningdek, subsidiya asosan davlat tomonidan ajratiladigan moliyaviy ko‘mak hisoblanadi. Davlat subsidiyasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash uchun beriladigan va maxsus loyihalar bilan bog‘liq bo‘lmagan moliyaviy yoki boshqa moddiy ko‘makdir[2].

Afzal jihatlari: maqsadli yo‘naltirilgan bo‘ladi, katta hajmdagi mablag‘ni jalb qilish imkoni, loyihani amalga oshirish uchun mustahkam moliyaviy poydevor yaratadi.

Salbiy taraflari: grantlarni olish jarayoni murakkab va raqobatli, hisobot berish talabi katta mas’uliyat yuklaydi, grant muddati cheklangan bo‘lib, loyihaning barqarorligiga ta’sir qilishi mumkin.

2. Homiylik va xayriyalar

Mahalliy tadbirkorlar va jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan moliyaviy yordam NNTlar uchun muhim daromad manbasi hisoblanadi. Bu shakl nodavlat tashkilotlarning mustaqilligini saqlash imkonini beradi, biroq uning uzluksizligi kafolatlanmagan.

Afzal jihatlari: tashkilot mustaqilligini ta’minlash imkonini beradi, homiylar bilan uzoq muddatli hamkorlik o‘rnatish mumkin.

Salbiy taraflari: homiylar manfaatiga bog‘liq bo‘lib qolish ehtimoli bor, mablag‘ uzluksiz kelib turmasligi mumkin, hayriyalarga jamoatchilik ishonchini oshirish zarur.

3. A’zolik badallari va ixtiyoriy to‘lovlar

Ayrim NNTlar o‘z a’zolaridan muntazam ravishda badallar yig‘ishadi. Bu jamiyatning faolligini oshirish bilan birga, tashkilotning moliyaviy mustaqilligini ta’minlashga xizmat qiladi .

Afzal jihatlari: daromadning ichki manbai hisoblanadi, a’zolarni tashkilot faolligiga jalb etadi.

Salbiy taraflari: mablag‘ miqdori cheklangan, a’zolar soni yetarli bo‘lmasa, barqarorlik ta’minlanmaydi.

Ikkinchidan, NNTlarni moliyalashtirishning zamonaviy usullari.

1. Kraudfanding (ommaviy mablag‘ yig‘ish)

Kraudfanding - internetdagi maxsus platformalar orqali jamoatchilikdan muayyan ijtimoiy loyiha uchun mablag‘ to‘plash usulidir. Bunda jismoniy shaxslar yoki tashkilotlar kam miqdordagi mablag‘lar bilan qatnashadi, lekin jamida katta mablag‘ yig‘ilishi mumkin. Kraudfanding platformalari orqali jamoatchilikdan mablag‘ to‘plash so‘nggi yillarda keng tarqalmoqda. Bu usul jamoatchilikni loyihaga jalb qilish va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ibot olib borish imkonini yaratadi.

Afzal jihatlari: jamoatchilikni loyihaga jalb qiladi, axborot tarqatish va targ‘ibot uchun qulay, barcha jarayon ochiq va shaffof.

Salbiy taraflari: marketing va axborot tarqatish ishlari talab etiladi, barcha loyihalar ham ommani jalb eta olmaydi, mablag‘ yig‘ish kafolatlanmagan.

2. Ijtimoiy tadbirkorlik

Ijtimoiy tadbirkorlik - tijorat faoliyati orqali tushgan foydani ijtimoiy maqsadlarga yo‘naltirishni nazarda tutadi. NNTlar bu orqali o‘zini-o‘zi moliyalashtirish va loyihalarini mustaqil amalga oshirish imkoniga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, ijtimoiy tadbirkorlik foyda

[2] Ўзбекистон Республикасининг “Нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2007. 12-моддаси

orqali ijtimoiy muammolarga yechim topishga qaratilgan faoliyat bo‘lib, NNTlar uchun barqaror daromad manbasini yaratishi mumkin. Bu usul AQSh, Yevropa va Osiyoda jadal rivojlanib kelmoqda.

Afzal jihatlari: barqaror daromad manbai yaratiladi, donorlarga bo‘lgan bog‘liqlik kamayadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Salbiy taraflari: tadbirkorlik salohiyati yetarli bo‘lmasligi mumkin, soliq va huquqiy me’yorlar ta’siri bor, raqobat muhitida barqarorlikni ta’minlash qiyin.

3. Davlat - NNT sherikligi (Public - NGO Partnership)

Ijtimoiy sheriklik davlat organlarining NNTlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir[3].

Ushbu model davlat va NNTlar o‘rtasidagi hamkorlik asosida ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Bunda davlat tomonidan moliyaviy yordam, infratuzilma va huquqiy qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatiladi.

Afzal jihatlari: davlat resurslaridan samarali foydalanish, keng qamrovli loyihalarni amalga oshirish imkoni, jamoatchilik ishonchini oshiradi.

Salbiy taraflari: byurokratik to‘siqlar, loyiha ustidan nazorat kuchli bo‘ladi, mustahkam huquqiy baza talab etiladi.

Uchinchidan, NNTlar moliyalashuvidagi dolzarb muammolar.

- Qonunchilikdagi nomuqobilliklar

NNTlar faoliyatini moliyalashtirishga oid qonunchilik ko‘p hollarda yetarlicha rivojlanmagan, ayrim hollarda esa cheklovchi normalar mavjud. Bu esa yangi moliyalashtirish modellarini qo‘llash imkoniyatini cheklaydi.

- Moliyaviy savodxonlikning past darajasi

Ko‘pgina NNTlar moliyaviy rejalashtirish, hisobot yuritish va zamonaviy moliyalashtirish texnologiyalaridan foydalanish borasida yetarli bilim va ko‘nikmaga ega emaslar.

- Tashkilotlar shaffofligi muammosi

Donorlar va jamoatchilik uchun tashkilot faoliyati shaffof bo‘lmasa, ishonchsizlik yuzaga keladi. Bu esa moliyalashtirish imkoniyatlarini kamaytiradi. Shu sabab, hisobot berish tizimi va axborot ochiqligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar

Mazkur maqolada NNTlarning ijtimoiy loyihalarini moliyalashtirishga oid an’anaviy va zamonaviy usullar tizimli ravishda tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, NNTlarning samarali va barqaror faoliyati ko‘p jihatdan moliyaviy ta’minotning yetarliligi, diversifikatsiyasi va manbalarning barqarorligiga bog‘liqdir.

An’anaviy moliyalashtirish shakllari - grantlar, xayriyalar va a’zolik badallari - hozirda ham asosiy manba hisoblansa-da, ularning barqaror emasligi, chegaralanganligi va ba’zan loyiha muddatidan ortiq davrni qamrab olmasligi tashkilotlar faoliyatida uzilishlarga sabab bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy yondashuvlar - kraudfanding, ijtimoiy tadbirkorlik va davlat-NNT sherikligi - keng imkoniyatlarni yaratadi, ammo ularni to‘liq rivojlantirish uchun huquqiy,

[3] Ўзбекистон Республикасининг “Ижтимоий шериклик тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2014. 3-моддаси

infratuzilmaviy va institutsional asoslar talab etiladi. Jumladan, moliyaviy savodxonlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, shaffof hisobot yuritish va jamoatchilik bilan ishlash kabi yo‘nalishlarda ish olib borish zarur.

Shu asosda quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Qonunchilik va normativ bazani takomillashtirish

NNTlarni moliyalashtirishga oid maxsus qonunlar qabul qilish;

Xayriya va kraudfanding faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi huquqiy mexanizmlarni joriy etish;

Davlat grantlarini taqsimlashda shaffoflik va xolislik mezonlarini kuchaytirish.

2. NNTlarning moliyaviy savodxonligini oshirish

NNT rahbarlari va moliya bo‘yicha mutaxassislari uchun muntazam treninglar tashkil etish;

Budjet tuzish, hisobot yuritish, grant yozish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar tayyorlash;

Elektron hisobot va monitoring tizimlarini joriy etish.

3. Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish

Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, bu yo‘nalishda yuridik va moliyaviy imtiyozlar yaratish;

Kraudfanding platformalarini mahalliy shart-sharoitga moslashtirish;

Xususiy sektor va jamoatchilik bilan hamkorlikni rivojlantirish.

4. Davlat - NNT sherikligini rivojlantirish

Davlat dasturlari doirasida NNTlar ishtirokini kafolatlovchi tanlov va grant tizimini yaratish;

Umumdavlat ijtimoiy maqsadlarga erishishda NNTlarni strategik hamkor sifatida ko‘rish;

Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha NNTlarga autsorsing berish amaliyotini kengaytirish.

5. Jamoatchilik ishonchini mustahkamlash

NNTlar faoliyati to‘g‘risida jamoatchilikka ochiq va muntazam axborot taqdim etish;

Xisobotlarni elektron portalga joylashtirish orqali shaffoflikni ta’minlash;

Ommaviy axborot vositalari bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 1999.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2007.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Ижтимоий шериклик тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2014.
4. Salamon, L.M., & Anheier, H.K. “The Emerging Sector: The Nonprofit Sector in Comparative Perspective.” – Johns Hopkins University, 1996.
5. USAID. “NGO Sustainability Index for Central and Eastern Europe and Eurasia.” – Annual Reports, 2019–2023.
6. Wood, J. and K. Fällman (2019), “Enabling Civil Society: Select survey findings”, OECD Development Co-operation Working Papers, No. 57, OECD Publishing, Paris, https://doi.org/10.1787/54903a6a-en.